

SAHNADAGI NAFIS SAN'AT – O'ZBEK MILLIY BALETI TARIXIGA BIR NAZAR

Dotsent v.b. S.M. Zokirova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasи

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy baletining paydo bo'lishi, uning yaratilishi va rivojlanishida A.Navoiy nomidagi teatrning tutgan o'rni, milliy balet mакtabini yaratishga o'z hissasini qo'shgan san'at arboblari hamda balet san'ati uchun kadrlar yetkazib berayotgan bilim maskanlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: balet, musiqa, san'at, libretto, kompozitor, pantomima, xoreografiya, plastika, teatr, akademiya.

КРАСИВОЕ ИСКУССТВО НА СЦЕНЕ - ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО БАЛЕТА

Аннотация. В статье рассматривается возникновение, создание и развитие узбекского национального балета, роль театра имени А.Навои в нем, артисты, внесшие вклад в создании национальной балетной школы, а также учебные заведения, обеспечивающие кадрами балетное искусство.

Ключевые слова: балет, музыка, искусство, либретто, композитор, пантомима, хореография, пластика, театр, академия.

BEAUTIFUL ART ON STAGE - A LOOK AT THE HISTORY OF THE UZBEK NATIONAL BALLET

Abstract. The article examines the emergence, creation and development of the Uzbek national ballet, the role of the theater Navoi in it, artists who contributed to the creation of the national ballet school, as well as educational institutions that provide ballet art with personnel.

Keywords: ballet, music, art, libretto, composer, pantomime, choreography, plastic, theater, academy.

Sahnadagi nafis san'at - O'zbek milliy baleti tarixiga bir nazar.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra balet (lot. **ballo** - raqsga tushaman) - asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'ati turidir. O'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi, bu san'at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud

bo‘lmay, baletning umumlashuv markazi bo‘lgan xoreografiyaga bo‘ysunadi. Balet librettachi, kompozitor, baletmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. Baletning dramaturgik asosi libretto (ssenariy)dan boshlanib, unda asarning asosiy mazmuni, g‘oya, ziddiyat va xarakterlari aniq belgilanadi. Libretto ko‘pincha adabiy asarga asoslanib, uni musiqa va xoreografiyada gavdalantirish imkoniyati hisobga olinadi. Ssenariy asosida esa kompozitor balet musiqasini yaratadi. Uning izchilligi, sahna ko‘rinishi, parda va nomerlarga bo‘linishi ssenariyda ko‘rsatiladi. Musiqa faqat ssenariyni ifodalabgina qolmay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan uni boyitadi. Balet musiqasi xoreografiyani yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Balet - musiqada yozilgan, xoreografiyada gavdalantirilgan dramadir. Xoreografik harakatning asosi raqs va inson tanasining plastikasidir. Baletda raqsning mumtoz, xarakterli, sahna, xalq, erkin plastika, «modern» kabi turlaridan foydalaniladi. Mumtoz raqs Yevropa balet san'atida yetakchi o‘rinni egallab, pantomima, raqsning boshqa turlari, sport va akrobatika elementlari bilan boyib bormoqda. Balet spektaklida dekoratsiya, libos, yorug‘lik va balet hamma tasviri vositalarni musiqiy xoreografik harakatga uyg‘unlashtirish rassomning vazifasidir. Balet spektaklining ijrosi, musiqiy talqini va musiqa bilan raqs harakatining uyg‘unligiga dirijyor rahbarlik qiladi. Baletning fojia, komediya, p’esa, balet - simfoniya kabi janrlari mavjud. Balet spektakllari bir pardali, ko‘p pardali bo‘ladi. «Balet» atamasi asosan 16-19-asrlar davomida shakllangan Yevropa balet san'atini ifodalaydi, lekin 20-asrdan kengroq talqin qilinib, Osiyo va Afrika mamlakatlarining raqs tomoshalariga nisbatan ham ishlatiladi.

Hozirgi Yevropa baletining paydo bo‘lishi qadimdagи xalq musiqali raqs tomoshalariga borib taqaladi. 15-16-asrlarda teatrlashgan raqslarning shakllanish jarayoni avval Italiyada, so‘ng boshqa mamlakatlarda balet san'atini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Balet san'atining O‘zbekistonda paydo bo‘lishi tarixiga kelganda esa, u 20-asr boshida O‘zbekistonda o‘z rivojini boshlaganligi ta‘kidlash joiz. 1916 yildan sayyoh raqqos va qo‘sinqchilar paydo bo‘lib, ular o‘z san'at mahoratlarini turli shaharlar kezib namoyish etishgan. Ilk musiqali truppani qo‘sinqchi va teatr arbobi Muxiddin Qori Yoqubov Farg‘ona shahrida tashkil qiladi. 1929 yilda mashhur o‘zbek yozuvchisi Hamza Xakimzoda o‘zbek namunali etnografik truppa tashkil qilib, unda artistlar raqs va qo‘sinq bilan «Arshin mol olan», «Halima» kabi musiqali p’esalar ijro etishadi. Truppaga Muxiddin Qori Yoqubov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavxar Rahimovalar ham kelishadi. 1930 yillarda Toshkent shahrida ikkita teatr o‘z faoliyatini olib boradi. O‘zbek musiqali teatri va muhojir rus qo‘sinqchilarini va raqqoslardan tashkil topgan Rus davlat opera teatri. Spektakllar «Kolizey» Sisinadze sirk binosida bo‘lardi. Keyinchalik u Davlat Opera teatri nomi bilan o‘zgartirildi. Teatrda baletmeyster I.Arbatov, P.K.Yorkin, A.R.Tomskiy, M.F.Moiseevlar ishlab,

1932 yilda M.F.Moiseev tomonidan Chaykovskiyning «Oqqush ko‘li» baleti qo‘yiladi. Balet rollarini Ye.Semenova, G.Pokrovskaya, V.Gubskaya, T.Kutasova, A.Tomskiy, N.Dovgelli, V.Nejdanov, Y.P.Novikov, G.Galetko, O.Abrikosov, B.Shevchuklar mahorat bilan ijro etishgan. Asta-sekin balet repertuarlariga kompozitor B.Asaf’evning baletmeyster A.R.Tomskiy tomonidan sahnalashtirilgan «Bog‘chasarov fawvorasi», Glierning «Qizil maki», Kreynning baletmeyster F.Lopuxov ijod namunasi "Laurensiya" baletlari kiradi.

1933 yilda ushbu jamoaning bazasida o‘zbek musiqali teatri tashkil topadi. O‘zbek musiqali teatr sahnasida T.B.Rostislav va Usta Olim Komilov tomonidan sahnalashtirilgan birinchi milliy «Paxta» baleti qo‘yiladi. Bu o‘zbek xalq raqsi va pantomimasini qo‘llashning ilk urinishi edi. 1939 yilda kompozitor F.Tal’ning musiqasiga A.Tomskiy «Shohida» baletini sahnalashtirib, unda o‘zbek xalqining bosmachlarga qarshi kurashi xaqida gapiriladi. 1941 yilda Brusilovskiy musiqasi asosida baletmeyster V.I Gubskaya va I.Arbatovlar «Gulandom» baletini yaratishdi. Ular bilan birga Tamaraxonim va Usta Olim Komilovlar ishlaydi. Yevgeniy Baranovskiy V.Chebukianning «Tog‘ yuragi» («Serdse gor»)ini, klassik balet xoreografiya matnini murakkablashtirib, gruzin xalq raqsiga urg‘u berib, qayta ishlaydi. O‘zbek baleti san’ati rivojida rus baletmeysterlari va pedagoglar tomonidan o‘zbek mumtoz raqsi va baleti rivojida asos yaratildi. Yangi baletlar sahnalashtirish uchun mumtoz raqsni professional darajada o‘zlashtirgan mutaxassislar lozim bo‘ldi. Balet maktabi tashkil qilish, opera-balet san’ati rivojlantirish va shu asosda opera-balet teatr binosi qurilishi masalasi keng qo‘yildi. 1947 yilga kelib bunday teatr barpo etildi. Hozirgi kunda ushbu teatr Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta teatr deb atalishi faxrlidir. Ushbu yili o‘zbek musiqali teatri va rus opera jamoalari birlashib, birgalikda ishlay boshladilar. 1948 yilga kelib esa o‘zbek milliy shoiri, yozuvchisi Alisher Navoiy nomi beriladi. Teatr Toshkentning eng go‘zal maskaniga aylandi. Xalqning man’aviyati va madaniyatini, undagi yutuqlari O‘zbekiston balet san’atining mulki bo‘la boshladi (o‘sha yerda).

Teatr tarixi 1920-yillar o’rtalarida milliy madaniyatimiz darg’asi, teatr san’atining hassos muhibi, O‘zbekiston xalq artisti Muhiddin Qori-Yoqubov tomonidan professional Konsert-etnografik ansambli tashkil etilgan vaqtadan boshlanadi.

Tolmas musiqa va jamoat arbobi hamda iste’dodli tashkilotchi M. Qori-Yoqubov akademik milliy teatr jamoasini yaratish g‘oyasini hayotga tatbiq etar ekan, butun respublika bo‘ylab iste’dodli san’atkorlarni izlab topar, ularning professional o‘sishi haqida qayg‘urar edi. O‘sha vaqtida ansambl’ truppassi yosh ijodiy kuchlardan iborat bo‘lib, keyinchalik ular xalq va xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari, davlat mukofotlari sovrindorlari sifatida tanildilar. Ular orasida Tamara Xonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimova, Zuhur Qobulov, Boborahim Mirzaev, Lutfixonim Sarimsoqova, Usta Olim Komilov, Mukarram Turg‘unboeva, Roziya Karimova,

Karim Zokirov, Po'latjon Rahimov, dramaturglar G'ulom Zafariy, Sharofiddin Kurshid, Komil Yashin, kompozitorlar va dirijyorlar Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqovlar bor edi.

Bu ijodiy jamoaga asoslanib, 1929 yil noyabr' oyida davlat O'zbek musiqiy teatri tashkil etildi va u tarixiy rivojlanish jarayonida bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi DAKT timsolida xoreografiya, vokal, dramaturgiya va boshqa ko'plab san'at turlarini o'z ichiga olgan murakkab tuzilmaga aylandi. Davlat O'zbek musiqa teatrining birinchi direktori va badiiy rahbari M. Qori-Yoqubov bo'ldi, raqs truppasini iste'dodli raqqosa Tamara Xonim boshqara boshladi. Yosh jamoa o'z chiqishlari bilan nafaqat yurtimizda, balki uzoq o'lkalarda - Bel'giya, Gollandiya, Fransiya, Angliya, Misr, Rossiya, Tatariston, Ozarboyjon, Gruziyada ham katta muvaffaqiyat qozonib, milliy o'ziga xosligi, yorqin artistik temperamenti, jozibali musiqalari bilan barchani maftun etdi.

1943 yilda Sergey Vasilenkoning baletmeyster Fyodor Lopuxov tomonidan sahnalashtirilgan hamda Meli Musaev rassomlik va dekoratorlik qilgan «Oqbilak» baleti prem'erasi xoreografiya san'ati rivojida muhim qadam bo'ldi. «Oqbilak» baleti qahramoni obrazi san'atkori M.Turg'unboeva tomonidan ijro etildi. Rang-barang o'zbek xalq raqlari ham muvaffaqiyatli ijro qilindi.

Musiqa-sahna san'atini rivojlantirishdagi katta muvaffaqiyatlari uchun A.Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatriga 1959 yilda «Akademik», 1966 yilda esa «Katta» unvonlari berildi. O'shandan buyon teatr o'zining yuksak nomi – «Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatri» nomini muvaffaqiyat bilan oqlab kelmoqda.

2005 yil 15 aprelda G.Aleksidze xoreografiyasidagi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, teatr badiiy rahbari A.Ergashev musiqasiga sahnalashtirilgan o'ziga xos «Humo» milliy baleti prem'erasi bo'lib o'tdi.

Turli manbalar tahlili asosida yuqorida keltirilgan, o'zbek milliy balet san'ati tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar bu san'at o'zbekistonda muntazam rivojlanishda ekanligidan dalolat beradi. Kezi kelganda, bu san'at rivoji uchun kadrlar yetkazib beruvchi bilim maskanlari haqida ham ikki og'iz so'z aytishga to'g'ri keladi.

1947 yil 11 dekabrda birinchi o'zbek balet maktabi asosida pedagog-ustozi, xoreografiya san'ati xususiyatlarini bilgan M.A.Xaratov va Leningrad xoreografiya bilim yurtini tamomlagan Z.N.Afanas'evalar badiiy rahbar bo'lgan Toshkent Davlat Xoreografiya bilim yurti tashkil topdi.

1997 yilda O'zbek xoreografiya bilim yurti bazasida Toshkent Davlat Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tashkil topdi. Balet maktabi paydo bo'lgandan klassik va xalq yo'nalishini bitirgan o'quvchilar soni 3420 ni tashkil qiladi. Raqsning barcha turlari bo'yicha malakali balet artistlarini tarbiyalashga Xalq artist, O'zbekiston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpoq xalq artisti, san'at

arboblari kabi ustozlar mehnat qilmoqdalar. 2004 yilda esa Oliy va o'rta ta'lim vazirligining qarori bilan mакtab Xoreografiya kolleji maqomini oladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda ushbu kollej Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya Oliy maktabiga aylantirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldag'i, PQ-4585-sonli «Raqs san'ati» sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Oliy maktab «O'zbek davlat xoreografiya akademiyasi»ga aylantirilishi, milliy raqs san'ati, shu jumladan balet san'atining ham yurtimizda istiqboli porloq ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абрайкулова, Н.Е. (2019). ТАНЕЦ "МУНОДЖАТ" И ЕГО ХОРЕОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ. Научный вестник Наманганского государственного университета, 1(4), 376-379.
2. Абрайкулова, Н. (2003). Методы работы с танцевальным коллективом. Т.: Народное наследие имени А. Кадири.
3. Абрайкулова, Н. Э. (2018). ТВОРЧЕСКАЯ РАБОТА ХОРЕОГРАФА-ПЕДАГОГА С КОНЦЕРТМЕЙСТЕРОМ ХОРЕОГРАФИИ. *Мировая наука*, (5), 142-145.
4. Дўсанов Р.Р. (2023) БАХШИЛАР "БИР АКТЁР ТЕАТРИ" ИЖРО УСЛУБИ АСОСЧИЛАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОНН҆Е ИДЕИ В МИРЕ, 13(3), 109-115.
5. ЗК Фазлиева. ВЗАИМОСВЯЗЬ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ПРОЦЕСЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА" МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ТАНЦА"//Теория и практика современной науки. – 2018. – Т. 4. – С. 534-537.
6. Kamarbekovna F. Z. THE ROLE OF THE COMPOSER IN THE ART OF CHOREOGRAPHY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 2-2.
7. MAMIROVA, D. (2019). ASSOCIATION OF PHYSICAL PREPAREDNESS AND ACTOR MASTERY IN A SINGLE APPROACH DURING FUTURE SPECIALISTS TRAINING. *Culture and Arts of Central Asia*, 9(1), 68-72.
8. Mamirova, D. T. (2019). INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE ON THE FORMATION OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 430-433.
9. Мамирова, Д.Т. (2022). РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРИКЛАДНОЙ ПОДГОТОВКЕ В ВУЗАХ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 107-113.

10. Маннонов С. Ш., Фазлиева З. К. ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР //Oriental Art and Culture. – 2021. – №. 8. – С. 99-105.
11. Юсупова, В.И., & Останина О.А. (2019). ИННОВАЦИОННО-КУЛЬТУРНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp.232-233).
12. Ismetovna, Y.V., Anatolevna, O.O., Ljuraevna, U.L., & Erkinovna, A.N. (2021). Peculiarities of theatrical art. Emergent:Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 2(6), 1-4.
13. Юсупова, В.И., & Останина, О.А. (2020). Специфика постановки пьесы Уильяма Шекспира «Гамлет» на узбекском языке на сцене учебного театра Государственного института искусств и культуры Узбекистана. In Язык и культура (pp.254-259).
14. Шерматов Н. (2021). “ДИЛХИРОЖ” РАҚСИЁНГАН ЮРАК АЛАНГАСИ. Oriental Art and Culture, 2(4), 334-339.
15. Н.Шерматов. International Conference on Digital Society, Innovations & Integrations of Life in New Century. www.iejrd.com SJIF: 7.169 1. CLASSICAL DANCE AS AN IMPLEMENTATION OF VARIOUS LIFE THEMES AND PLOTS. 2021 йил 13-февраль.